

O‘zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi tomonidan 2025 yil
30 sentyabrdagi 751p – son bilan
QAYTA RO‘YXATDAN
O‘TKAZILGAN

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyati xodimlari kasaba
uyushmasi Konferensiyasining 2025 yil
15 avgustdagi VIII hisobot saylov
konferensiyasining
VIII-3-son qarori bilan
TASDIQLANGAN

**“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyati
xodimlari kasaba uyushmasi
USTAVI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati xodimlari kasaba uyushmasi (bundan buyon matnda - “Kasaba uyushmasi” deb yuritiladi) “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matinda - “Olmaliq KMK” AJ deb yuritiladi) va kasaba uyushmasiga a’zo tashkilotlarda (bundan buyon matnda “a’zo tashkilot” deb yuritiladi) faoliyat turi bo’yicha umumiy manfaatlar bilan birlashgan xodimlar, talaba, ishlaydigan pensionerlarning (bundan buyon matnda “kasaba uyushmasi a’zolari” deb yuritiladi) o’z faoliyati va umumiy kasbiy manfaatlari bilan bog’liq bo’lgan, mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida ixtiyoriy asosda tuzilgan, nodavlat notijorat tashkiloti bo’lib, uning tashkiliy-huquqiy shakli jamoat birlashmasi hisoblanadi.

1.2. Kasaba uyushmasi o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

1.3. Kasaba uyushmasi o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Kasaba uyushmalari to’g’risida”gi hamda boshqa qonun hujjatlari, O’zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalar, O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining ta’sis hujjatlari, shuningdek, mazkur Ustav asosida amalga oshiradi.

Ushbu Ustav qoidalari kasaba uyushmasining barcha a’zolari majburiydir.

1.4. Kasaba uyushmasi o’z faoliyatida, shu jumladan moliyaviy faoliyatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan mustaqildir, ular oldida hisobdor emas hamda ular tomonidan nazorat qilinmaydi, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

1.5. Kasaba uyushmasi faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ixtiyoriylik;
qonuniylik;
kamsitishga yo’l qo’ymaslik;
mustaqillik va o’zini o’zi boshqarish;
teng huquqlilik;
oshkoralik va ochiqlik;
kollegiallik;
kamchilikni ko’pchilikka bo’ysunishligi;

barcha darajadagi kasaba uyushmalari tashkilotlarining rahbar organlari saylash asosida shakllantirilishi.

1.6. Kasaba uyushmasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek ish beruvchilar, ularning birlashmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, yuridik shaxslar hamda fuqarolar bilan o’zaro hamkorlik qiladi.

1.7. Kasaba uyushmasi mazkur Ustavda belgilangan maqsadlarga hamda vazifalarga muvofiq boshqa mamlakatlarning kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilishi, xalqaro va boshqa kasaba uyushmalari birlashmalari hamda tashkilotlariga a’zo bo’lishi mumkin.

Kasaba uyushmasining boshqa mamlakatlar kasaba uyushmalari bilan hamkorlikdagi, shuningdek, xalqaro va boshqa kasaba uyushmalari birlashmalari hamda

tashkilotlaridagi faoliyati O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining (bundan buyon matnda "Federatsiya" deb yuritiladi) Ustaviga, uning rahbar organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlariga, Federatsiyaning kasaba uyushmalari umumiy faoliyatidagi siyosatiga zid bo'lishi mumkin emas.

1.8. Mazkur Ustav qoidalari talqinini berish kasaba uyushmasi Kengashining (bundan buyon matnda "Kengash" deb yuritiladi), uning majlislari oralig'ida esa kasaba uyushmasi Kengashi Ijroiya qo'mitasining (bundan buyon matnda "Ijroiya qo'mita" deb yuritiladi) huquqi hisoblanadi.

Mazkur Ustav qoidalariga berilgan talqindan norozi bo'lgan manfaatdor taraf Federatsiyaga murojaat qilishga haqli bo'lib, bunda Federatsiya tomonidan berilgan talqin yakuniy talqin hisoblanadi.

1.9. Kasaba uyushmasining nomlanishi:

o'zbek tilida: "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati xodimlari kasaba uyushmasi, qisqartmasi – "OKMK" AJ XKU;

rus tilida: Профессиональный союз работников акционерного общества «Алмалыкский горного-металлургический комбинат» - қисқартмаси ПСР АО «АГМК»;

ingliz tilida: Trade union of employees of JSC "Almalyk mining and metallurgical Complex" qisqartmasi - TUOE JSC "AMMC"

1.10. Kasaba uyushmasining doimiy faoliyat yurituvchi rahbar organi joylashgan manzili: O'zbekiston Respublikasi, 110105, Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Xumo ko'chasi, 5-uy.

II. KASABA UYUSHMASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. Kasaba uyushmasining asosiy maqsadi o'z a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, mehnat, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ifodalashdan iborat.

2.2. Kasaba uyushmasining asosiy vazifalari:

2.2.1. kasaba uyushmasi a'zosining mehnat huquqlariga rioya etilishi ta'minlash, kasaba uyushmasi a'zolariga bepul huquqiy yordam va maslahatlar berish;

2.2.2. ish beruvchilar bilan jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari tuzilishiga erishish, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2.2.3. ish beruvchilar bilan ijtimoiy sheriklik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2.2.4. qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchilar tomonidan xodimlarning manfaatlariga daxldor qarorlar qabul qilinguniga qadar kasaba uyushmasi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilishiga, jamoa kelishuvlarida hamda shartnomalarida belgilangan maqsadlar uchun va miqdorlarda mablag'lar ajratilishiga erishish;

2.2.5. kasaba uyushmasi a'zolari o'rtasida madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya va sport, turizim, sog'lomlashtirish, bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirishni rivojlantirish tadbirlarini tashkil etish, ushbu masalalarda davlat hokimiyati organlari,

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, birlashmalar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

2.2.6. faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, o'z faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida, Internet jahon axborot tarmog'ida, rasmiy veb-saytlarida muntazam ravishda yoritib borishda iboratdir.

III. KASABA UYUSHMASINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Kasaba uyushmasi quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. xodimlar nomidan jamoa muzokaralarini olib borish, jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzish;

3.1.2. insonning munosib hayot kechirishini va erkin rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni shakllantirishda, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, turmush darajasining asosiy mezonlarini va tirikchilik uchun zarur bo'lgan narsalarning eng kam miqdorini belgilashda ishtirok etish;

3.1.3. xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

3.1.4. davlat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, bandlikni ta'minlash, shu jumladan yangi ish o'rinlarini tashkil qilish va mavjudlarini saqlab qolish, tashkilotlarning faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan ozod etilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif etish;

3.1.5. qonun hujjatlarida tashkil etilishi hamda faoliyat ko'rsatishi tartibi belgilanadigan mehnat nizolari bo'yicha komissiyalarning ishida, shuningdek jamoaviy mehnat nizolarini tartibga solishda ishtirok etish;

3.1.6. ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

3.1.7. o'z ustav faoliyatini amalga oshirish uchun davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilardan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlari masalalari yuzasidan bepul axborot olish;

3.1.8. ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

3.1.9. maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan tanlov, tadbir va anjumanlar tashkil etish, o'tkazish, kasaba uyushmasi xodimlari va faollarini rag'batlantirish;

3.1.10. Ustavda belgilangan maqsad hamda vazifalariga muvofiq belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, tijorat tashkilotlarini tashkil etish, noshirlik faoliyati bilan shug'ullanish, turli jamg'armalarni shakllantirish;

3.1.11. ramziy belgilarini ta'sis etish;

3.1.12 o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiyalar, Qurultoylar o'tkazish.

Kasaba uyushmasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

3.2. Kasaba uyushmasining majburiyatlari:

3.2.1. qonun hujjatlariga rioya etish;

3.2.3. ish beruvchilar tomonidan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

3.2.4. o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash;

3.2.4. ro'yxatdan o'tkazuvchi organ vakiliga o'zi o'tkazayotgan tadbirlarga erkin kirish imkonini berish;

3.2.5. o'z a'zolari oldida kamida bir yilda bir marta o'z faoliyati haqida hisobot berish;

3.2.6. ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida qonunchilikda belgilangan hisobotlarni taqdim etish.

Kasaba uyushmasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

IV. KASABA UYUSHMASI A'ZOLARI, ULARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

Kasaba uyushmasi Ustavi talablarini tan oluvchi va bajaruvchi, a'zolik badallarini muntazam to'lab boruvchi 15 yoshga to'lgan har bir shaxs (xodimlar, o'quvchi-talaba) kasaba uyushmasi a'zosi bo'lishi mumkin.

4.2. Kasaba uyushmasi a'zoliciga qabul qilish yakka tartibda, a'zolikka kiruvchining shaxsiy arizasiga binoan boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi yoki saylangan organi majlisida amalga oshiriladi.

4.3. Kasaba uyushmasi saylangan organi kasaba uyushmasi a'zoliciga qabul qilish vakolatini boshlang'ich tashkilotga (bundan buyon matnda "boshlang'ich tashkilot" deb yuritiladi) berishi mumkin.

4.4. Kasaba uyushmasiga a'zolik bu haqda tegishli qaror qabul qilingan kundan hisoblanadi. Kasaba uyushmasiga qabul qilingan shaxsga Federatsiya tizimida tasdiqlangan yagona namunadagi a'zolik bileti beriladi.

4.5. Boshqa tarmoq kasaba uyushmasi a'zosi bo'lib "Olmaliq KMK" AJ tashkilotida o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodim ushbu ustavning 4.13. -bandida ko'zda tutilgan majburiyatlarni to'liq bajarish sharti bilan "Olmaliq KMK" AJ xodimlari kasaba uyushmasi a'zoliciga qabul qilinishi mumkin. Bunda kasaba uyushmasi a'zosi asosiy ish joyidagi boshlang'ich tashkilotda hisobda turadi va statistika hisobotlarida faqat mazkur boshlang'ich tashkilot tomonidan aks ettiriladi.

4.6. Quyidagi kasaba uyushmasi a'zolari boshlang'ich tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasi qaroriga muvofiq kasaba uyushmasiga a'zolikni saqlab qolishlari mumkin:

- bolani, kasal va nogironlarni parvarish qilish sababli vaqtincha ish faoliyatini to'xtatganlar;

- salomatligi yomonlashganligi yoki pensiyaga chiqib, mehnat faoliyatini to'xtatgan, lekin kasaba uyushmasi tashkiloti bilan aloqani uzmagani;

- xodimlar soni (shtat) qisqarishi, shuningdek, tashkilotning tugatilishi sababli ishdan ozod qilinganlar - ishga joylashgunlariga qadar, ko'pi bilan uch oygacha (faqat tizimidagi tashkilotga);

- ish beruvchi tomonidan noqonuniy ravishda ishdan bo'shatilganlar - qayta ishga tiklangan taqdirda.

4.7. Qurolli kuchlar safidan harbiy xizmatdan qaytganlar, shuningdek respublika hududidan tashqariga vaqtincha ishga ketganlar qaytib kelgandan so'ng tarmoq tizimidagi tashkilotga ishga joylashsa uning arizasiga asosan kasaba uyushmasiga a'zolik tiklanadi.

4.8. Boshqa tarmoq kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan shaxs "Olmaliq KMK" AJ xodimlari kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti tuzilgan tashkilotga ishga o'tgan taqdirda, qaytadan kasaba uyushmasi a'zoligiga qabul qilinishi lozim.

4.9. Kasaba uyushmasi a'zolari, qoida tariqasida, asosiy ish (o'qish) joylaridagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida hisobda turadilar.

4.10. Ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmasi a'zolidan chiqish kasaba uyushmasi a'zosining bu haqdagi arizasiga asosan, u qaysi organning qarori bilan a'zolikka qabul qilinganligidan qat'i nazar, boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi yoki saylangan organi majlisida amalga oshiriladi va tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab kasaba uyushmasi a'zosi a'zolikdan chiqqan hisoblanadi.

4.11. Kasaba uyushmasi a'zolari ushbu Ustavda belgilangan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar.

4.12. Kasaba uyushmasi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

4.12.1. kasaba uyushmasi organlaridan bepul huquqiy yordam olish hamda davlat, sud va mulk shaklidan qat'iy nazar xo'jalik organlarida mehnat munosabatlariga oid masalalar bo'yicha kasaba uyushmasining himoyasida bo'lish;

4.12.2. o'zining mehnat huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini so'rab har qanday darajadagi kasaba uyushmasi organlariga murojaat etish va murojaati bo'yicha tegishli javobni talab qilish;

4.12.3. kasaba uyushmasi tashkilotlarining saylangan organlariga saylash, saylanish;

4.12.4. kasaba uyushmasining tadbirlarida ishtirok etish, o'z fikrini erkin bayon qilish, o'z faoliyati va/yoki xulq-atvoriga taalluqli masala ko'rilayotgan majlis, yig'ilish, konferensiyalarda shaxsan ishtirok etish;

4.12.5. imtiyozli shartlarda asosida kasaba uyushmasining madaniyat muassasalari, sport inshootlaridan foydalanish;

4.12.6. kasaba uyushmasi mablag'laridan moddiy yordam olish;

4.12.7. tegishli kasaba uyushmasi tashkilotlarining rahbar organlari tomonidan belgilangan tartibda ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish;

4.12.8. sog'lomlashtirish muassasalari (sanatoriy-kurortlar, dam olish uylari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari)ga belgilangan tartibda imtiyozli yo'llanmalar

olish, madaniyat muassasalari va sport inshootlaridan foydalanish;

4.12.9. shaxsiy arizasiga ko'ra kasaba uyushmasi a'zolidan erkin chiqish.

4.13. Kasaba uyushmasi a'zolarining majburiyatlari:

4.13.1. kasaba uyushmasi Ustaviga rioya qilish va kasaba uyushmasi organlari qarorlarini belgilangan muddatida va sifatli bajarish;

4.13.2. kasaba uyushmasi tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish;

4.13.3. jamoa shartnomalari va kelishuvlari majburiyatlarining bajarilishiga ko'maklashish;

4.13.4. har oyda belgilangan tartibda a'zolik badallarini to'lab borish.

4.13.5. kasaba uyushmasi faoliyatiga to'sqinlik qiladigan va zarar keltiradigan, kasaba uyushmasining sha'niga ziyon yetkazadigan hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik.

4.14. Ustavda belgilangan majburiyatlarni bajarmagan kasaba uyushmasi a'zosiga nisbatan quyidagi jamoatchilik ta'sir choralari qo'llanishi mumkin:

- ogohlantirish;

- kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarish.

Jamoatchilik ta'sir choralari bevosita nojo'ya hatti-harakat aniqlangandan so'ng bir oy ichida, lekin u sodir etilgan kundan olti oydan kechikmasdan qo'llaniladi, bunda kasaba uyushma a'zosining vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri (tibbiyot muassasasi tomonidan berilgan kasallik varaqasiga asosan) yoki ta'tilda bo'lgan vaqt hisoblanmaydi.

Har bir nojo'ya xatti-harakat uchun kasaba uyushma a'zosiga faqat bitta jamoatchilik ta'sir chorasini qo'llaniladi.

4.15. Kasaba uyushmasi a'zosiga jamoatchilik ta'sir choralarini qo'llash masalasi uning ishtirokida, uzrli sabablarsiz kelmagan hollarda esa uning ishtirokisiz, kasaba uyushmasi guruhi, sex tashkiloti, boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishida yoki ularning saylangan organlari majlislarida, shuningdek, yuqori kasaba uyushmasi tashkilotlari rahbar (ijroiya) organlarining majlislarida hal qilinadi va ushbu vakolatli organning qarori qabul qilinadi.

Kasaba uyushmasi a'zosini kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarish to'g'risidagi qaror kasaba uyushmasi Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan yoki u bilan kelishilgan holda tegishli kasaba uyushmasi tashkilotining vakolatli organi tomonidan qabul qilinadi.

Kasaba uyushmasi a'zosiga qo'llanilgan jamoatchilik ta'sir chorasini haqida qaror qabul qilgan yuqori kasaba uyushmasi organi 10 ish kundan kechikmay ushbu kasaba uyushmasi a'zosi hisobda turgan boshlang'ich tashkilotni (kasaba uyushmasi qo'mitasini) xabardor qilishi lozim. Xabardor qilish qaror nusxasini (qarordan ko'chirmani) yoki alohida xat yohud elektron xabarnoma yo'llash shaklida bo'lishi mumkin. Xatda yoki elektron xabarnomada qarorning tartib raqami, sanasi, qo'llanilgan jamoatchilik ta'sir chorachining turi va sababi ko'rsatilishi kerak.

Kasaba uyushmasi a'zosi qaror qabul qilgan organga yozma ravishda murojaat etgan taqdirda, murojaat olingan kundan boshlab uch ish kundan kechikmay, unga jamoatchilik ta'sir chorasini qo'llash to'g'risida qaror nusxasi taqdim etiladi yoki murojaatida ko'rsatgan manzilga pochta orqali yohud elektron ko'rinishda yuboriladi.

4.16. Kasaba uyushmasi a'zosi jamoatchilik ta'sir chorasini qo'llanilishi ustidan, bu to'g'risidagi qarorni olgan kundan boshlab bir oy ichida, yuqori kasaba uyushmasi tashkilotining rahbar (ijroiya) organiga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin. Murojaat mazkur kasaba uyushmasi rahbar (ijroiya) organi tomonidan bir oydan ko'p bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

4.17. Kasaba uyushmasi a'zosiga nisbatan ogohlantirish turidagi jamoatchilik ta'sir chorasini qo'llagan kasaba uyushmasi organi, o'z tashabbusiga ko'ra, qaror qabul qilingan kundan boshlab kamida uch oydan so'ng ta'sir chorasini olib tashlashi mumkin.

4.18. Sud tomonidan jinoyat sodir etganlikda ayblangan va ozodlikdan mahrum etilgan kasaba uyushmasi a'zosi o'zi hisobda turgan boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi, saylangan organi yoki yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti rahbar (ijroiya) organining qarori bilan a'zolikdan chiqariladi.

4.19. Kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarilgan yoki chiqqan shaxs kasaba uyushmasi tomonidan o'zining ijtimoiy - mehnat huquqi va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi, bepul huquqiy yordam olish huquqiga ega emas.

6 oydan ortiq uzrsiz sabablarga ko'ra a'zolik badalini to'lamagan kasaba uyushmasi a'zosi kasaba uyushmasi a'zolidan chiqqan hisoblanadi (Ustavning 4.6. -bandida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

4.20. Kasaba uyushmasi tashkilotining saylangan organi tarkibiga (rahbarligiga) saylangan kasaba uyushmasi a'zosi a'zolikdan chiqsa (chiqarilsa), shu vaqtdan e'tiboran ushbu organ tarkibidan chiqarilgan (lavozimdan ozod etilgan) hisoblanadi.

Agar kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarilgan shaxs kasaba uyushmasi tashkilotining saylangan organida ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan holda vazifani bajaradigan lavozimga (rais, uning o'rinbosari va boshqalar) saylangan bo'lsa, u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarilgan shaxs kasaba uyushmasi tashkilotining saylangan organida ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan holda vazifani bajaradigan lavozimga (rais, uning o'rinbosari va boshqalar) saylangan bo'lsa, uni bu lavozimdan ozod etishda mazkur bandning ikkinchi qismida belgilangan qoida qo'llanilmaydi.

4.21. Kasaba uyushmasi faoliyatida faol qatnashganligi uchun kasaba uyushmasi a'zolari kasaba uyushmasi organlari tomonidan belgilangan tartibda ma'naviy va moddiy rag'batlantirilishi mumkin.

V. KASABA UYUSHMASINING TASHKILIY TUZILISHI

5.1. Kasaba uyushmasining tashkiliy tuzilmasini quyidagilar tashkil etadi:

- kasaba uyushmasi guruhlar, kasaba uyushmasi bo'linmalari (sex) tashkilotlari
- boshlang'ich tashkilotlar;
- kasaba uyushmasi;
- kasaba uyushmasi kengashining apparati.

5.2. Kasaba uyushmasi tizimida xotin-qizlar, yoshlar bilan ishlash va boshqa komissiyalar tuzilishi mumkin, ularning faoliyati Ijroiya qo'mita qarori bilan tasdiqlanadigan tegishli Nizomga muvofiq tartibga solinadi.

VI. BOSHLANG'ICH TASHKILOT

6.1. Boshlang'ich tashkilot bir yoki bir nechta ish beruvchida ishlaydigan yoki ta'lim muassasasida o'qiydigan kasaba uyushmasi a'zolari tomonidan, umumiy yig'ilish yoki konferensiyada ixtiyoriy birlashish asosida tashkil etiladi.

Boshlang'ich tashkilot tuzilmagan tashkilotlarda kamida 2 nafar xodim ushbu ustavning 4.3.-bandida belgilangan tartibda kasaba uyushmasi a'zolariga qabul qilinadi va ular tomonidan ushbu bandning birinchi qismida belgilangan tartibda boshlang'ich tashkilot tashkil etiladi.

Boshlang'ich tashkilotni tashkil etish to'g'risidagi qaror nusxasi kasaba uyushmasi xizmatiga qabul qilish uchun tegishli yuqori kasaba uyushmasi tashkilotiga yuboriladi.

6.2. Boshlang'ich tashkilot yuridik shaxs maqomi bilan yoki yuridik shaxs maqomisiz tashkil etilishi mumkin. Yuridik shaxs bo'lgan boshlang'ich tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tashkil etilgan hisoblanadi.

6.3. Boshlang'ich tashkilot o'z faoliyatini ushbu Ustav va Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlanadigan "Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti to'g'risida Nizom"ga muvofiq olib boradi.

6.4. Boshlang'ich tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasining qaroriga muvofiq tashkilotning tuzilmaviy bo'linmalarida sex tashkilotlari, kasaba uyushmasi guruhlarini tuzilishi hamda ularning vakolatlari belgilanishi mumkin.

6.5. Boshlang'ich tashkilotlarning hisobi – kasaba uyushmasi kengashi tomonidan yuritiladi.

6.6. Quyidagilar boshlang'ich tashkilotning organlari hisoblanadi:

- umumiy yig'ilish (konferensiya) - oliy organi;
- kasaba uyushmasi qo'mitasi - kollegial rahbar organi;
- kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi;
- kasaba uyushmasi tashkilotchisi - faoliyatini yakkaboshchilik asosida olib boruvchi rahbar organi;

Yirik boshlang'ich tashkilotlarda kollegial ijroiya organi - kasaba uyushmasi qo'mitasining rayosati saylanishi mumkin. Bunda uning vakolatlari "Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti to'g'risida Nizom"da belgilanadi.

6.7. Kasaba uyushmasi a'zolari soni 15 nafar va undan ortiq bo'lgan boshlang'ich tashkilotlarda - kasaba uyushmasi qo'mitasi, 15 nafargacha bo'lgan boshlang'ich tashkilotlarda kasaba uyushmasi tashkilotchisi saylanadi.

Kasaba uyushmasi a'zolari soni 15 nafar va undan ortiq bo'lgan bankda o'z hisobvarag'iga ega boshlang'ich tashkilotlarda taftish komissiyasi saylanadi.

Kasaba uyushmasi a'zolari soni 15 nafargacha bo'lgan bankda o'z hisobvarag'iga ega boshlang'ich tashkilotlarda umumiy yig'ilish g'aznachini tayinlashi mumkin.

Boshlang'ich tashkilot kollegial rahbar, ijroiya va organlari tarkibiga, shuningdek kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va rais o'rinbosari, kasaba uyushmasi tashkilotchisi lavozimlariga faqat ushbu boshlang'ich tashkilotda hisobda turgan kasaba uyushmasi a'zolari saylanishi mumkin, ushbu qoida taftish komissiyasiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

6.8. Boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi:

6.8.1. boshlang'ich tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasi a'zolarini (ularning-dublyorlarini), qo'mita raisi, rais o'rinbosari, kasaba uyushmasi tashkilotchisi (bankda o'z hisobvarag'iga ega bo'lgan boshlang'ich tashkilotlarda - taftish komissiyasi a'zolari va uning raisini saylaydi (g'aznachini tayinlaydi);

6.8.2. kasaba uyushmasi qo'mitasi, kasaba uyushmasi tashkilotchisining faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi va baho beradi;

6.8.3. Federatsiya va yuqori kasaba uyushmasi organining tizimida amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga zid bo'lmagan o'z me'yoriy hujjatlarini qabul qiladi, shuningdek, ularga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritadi;

6.8.4. jamoa shartnomasi loyihasini ma'qullaydi;

6.8.5. yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti konferensiyaciga delegatlar, saylangan organlari tarkibiga vakillarni va ularning dublyorlarini saylaydi (yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti tomonidan shunday tartib belgilangan taqdirda);

6.8.6. boshlang'ich tashkilotni qayta tashkil etish, tugatish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

6.8.7. boshlang'ich tashkilot tassarrufida tijorat tashkilot(lar)ini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi (faqat yuridik shaxs bo'lgan boshlang'ich tashkilotlarda).

6.9. Umumiy yig'ilishni o'tkazish imkoniyati bo'lmagan boshlang'ich tashkilotlarda (tarkibiy tuzilmalari tarqoq holda joylashgan, shuningdek yirik tashkilotlarda) kasaba uyushmasi qo'mitasining qarori bilan konferensiya chaqirilishi mumkin. Konferensiyaga vakillik me'yori va delegatlarni saylash tartibi konfrerensiyani chaqirayotgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Konferensiya boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi uchun belgilangan vakolatlariga ega.

Boshlang'ich tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va rais o'rinbosari (agar mavjud bo'lsa) lavozimiga ko'ra boshlang'ich tashkilot konferensiyasining delegati hisoblanadi.

6.10. Boshlang'ich tashkilot hisobot-saylov konferensiyasi qaroriga muvofiq delegatlarning vakolatlari boshlang'ich tashkilot rahbar organining vakolat muddatiga teng muddatgacha saqlab qolinishi mumkin.

6.11. Boshlang'ich tashkilotning navbatdagi umumiy yig'ilishi, konferensiyasi kasaba uyushmasi qo'mitasi (kasaba uyushmasi tashkilotchisi) tomonidan zaruriyatga ko'ra, lekin bir yilda kamida bir marotaba chaqiriladi, mazkur ustavning 12.1.-bandida ko'zda tutilgan hisobot-saylov yig'ilishlari, konferensiyalari bundan mustasno.

Umumiy yig'ilish, konferensiyani o'tkazish sanasi, vaqti, joyi va kun tartibi haqida kamida 30 (o'ttiz) kun avval ma'lum qilinadi.

6.12. Boshlang'ich tashkilotning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi

(konferensiyasi) quyidagilar tomonidan chaqirilishi mumkin:

- kasaba uyushmasi tashkilotchisi, kasaba uyushmasi qo'mitasining o'z tashabbusiga ko'ra;
- yuqori kasaba uyushmasi organining qaroriga binoan;
- ushbu boshlang'ich tashkilotda hisobda turgan kasaba uyushmasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismining talabiga ko'ra.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish (konferensiya) kasaba uyushmasi tashkilotchisi, kasaba uyushmasi qo'mitasining o'z tashabbusiga ko'ra chaqirilganda uni o'tkazish sanasi, vaqti, joyi va kun tartibi to'g'risida kamida 20 (yigirma) kun avval ma'lum qilinadi.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish (konferensiya) yuqori kasaba uyushmasi organining qaroriga binoan o'tkazilishi talab qilingan hollarda kasaba uyushmasi qo'mitasi (kasaba uyushmasi tashkilotchisi) yuqori tashkilotning qarori olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida umumiy yig'ilish (konferensiya)ni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishi va nusxasini tegishli yuqori tashkilotga yo'llashi shart.

Boshlang'ich tashkilotda hisobda turgan kasaba uyushmasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi navbatdan tashqari umumiy yig'ilish (konferensiya)ni o'tkazishni talab qilgan hollarda, kasaba uyushmasi qo'mitasi (kasaba uyushmasi tashkilotchisi) talab kelib tushgan vaqtdan boshlab 20 (yigirma) kun muddatda navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni (konferensiyani) chaqirishi shart.

Navbatdan tashqari konferensiyaga vakillik me'yori uni chaqirayotgan organ tomonidan belgilanadi.

6.13. Boshlang'ich tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasining yig'ilishlari zaruratga qarab, lekin har chorakda 1(bir) marotaba o'tkaziladi.

6.14. Kasaba uyushmasi qo'mitasi (tashkilotchisi):

6.14.1. mehnat, ijtimoiy, mehnat muhofazasi, ma'naviyat va ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish sohalarida tashkilot xodimlarining huquqlari, qonuniy manfaatlarini ifodalaydi hamda himoya qiladi;

6.14.2. yuqori kasaba uyushmasi organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi;

6.14.3. boshlang'ich tashkilot bo'linmalari (sex) kasaba uyushmasi qo'mitasi (kasaba uyushmasi tashkilotchisi) faoliyatini yo'naltiradi va nazorat qiladi;

6.14.4. mehnat jamoasini ijtimoiy rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini ishlab chiqishda, yakka tartibdagi va jamoalarga doir mehnat nizolarini hal qilishda qatnashadi;

6.14.5. o'rnatilgan tartibda jamoa shartnomasi loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, loyihani tegishli yuqori kasaba uyushmasi organi ekspertizasidan o'tkazadi va ma'qullash uchun umumiy yig'ilish (konferensiya)ga kiritadi;

6.14.6. ish beruvchi tomonidan qabul qilinadigan mehnatga oid lokal hujjatlar loyihalarini qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqadi va e'tirozlar bo'lmagan taqdirda kelishib beradi;

6.14.7. jamoa shartnomasini bajarilishini nazorat qiladi;

6.14.8. mehnatga haq to'lash tizimi, moddiy rag'batlantirish shakllari, mehnat va dam olish me'yorlarini ish beruvchi bilan kelishadi;

6.14.9. ish vaqti, ishlash rejimi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligining lokal aktlari hamda mehnat munosabatlarini tartibga soladigan boshqa me'yoriy hujjatlarning amalda qo'llanilishini kelishadi;

6.14.10. umumiy yig'ilishini yoki konferensiyani chaqirish to'g'risida qaror qabul qiladi, unga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilaydi;

6.14.11. umumiy yig'ilishi yoki konferensiyada o'zining faoliyati haqida hisobot beradi;

6.14.12. qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimlarning manfaatlariga daxldor qarorlar qabul qilinguniga qadar ish beruvchidan kasaba uyushmasi qo'mitasi (kasaba uyushmasi tashkilotchisi) bilan maslahatlashuvlar o'tkazilishini talab qiladi va o'rnatilgan tartibda amalga oshirilishiga rozilik berish yoki bermaslik masalalarini ko'rib chiqadi;

6.14.13. jamoa shartnomasida yoki tarmoq kelishuvida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchining tashabbusiga ko'ra xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish yoki bermaslik masalasini hal qiladi;

6.14.14. ish beruvchining amaldagi qonunchilikka zid tarzda qabul qilgan qarorlari, buyruqlarini belgilangan tartibda bekor qilinishiga erishadi;

6.14.15. amaldagi qonunchilikka binoan, mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etadi, mehnat huquqi, mehnat va salomatlik muhofazasi masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, ularga rioya etilishini nazorat qiladi;

6.14.16. kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti qo'mitasi komissiyalarini tuzadi va ularning ishini tashkillashtiradi;

6.14.17. kasaba uyushmasi a'zolariga moddiy yordam ko'rsatish, kasaba uyushmasi faollarini rag'batlantirish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti qo'mitasining faoliyatiga bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqadi;

6.14.18. boshlang'ich tashkilot faollarini o'qitishni tashkil etadi;

6.14.19. kasaba uyushmasi qo'mitasi zarur (sog'ligi tufayli o'z vazifalarini bajara olmagan, lavozimidan ozod etish haqida ariza bergan) hollarda umumiy yig'ilish (konferensiya) oralig'ida kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi, rais o'rinbosarini lavozimidan ozod etish va saylash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin;

6.14.20. yuridik maqomga va bankda hisobvarag'iga ega bo'lgan taqdirda, o'z ixtiyorida qoldirilgan mablag' doirasida, yuqori kasaba uyushma organi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq, kasaba uyushmasi byudjetini, daromadlar va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi hamda bu mablag'larni Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflaydi;

6.14.21. a'zolik badallari mablag'larini belgilangan tartibda va miqdorda yuqori kasaba uyushmasi organlariga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi;

6.14.22. amaldagi Nizomlar asosida xodimlar va ularning oila a'zolarini

sog'lomlashtirish ishlarini, ular o'rtasida madaniy-ma'rifiy, ommaviy-sport tadbirlarini tashkil qiladi;

6.14.23. o'rnatilgan tartibda kasaba uyushmasi faollarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ishlarini tashkil qiladi;

Kasaba uyushmasi qo'mitasi (tashkilotchisi) kasaba uyushmasi Kengashining Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti to'g'risida"gi Nizomga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajaradi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi o'zining ayrim vakolatlarini sex tashkilotlariga (sex qo'mitalariga), kasaba uyushmasi guruhlariga, qo'mita raisiga berishi mumkin, qonunchilikda bevosita kasaba uyushmasi qo'mitasiga berilgan vakolatlar (masalan, xodim bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga rozilik so'rab kiritilgan ish beruvchining taqdimnomasini ko'rib chiqish vakolati) bundan mustasno.

6.15. Sex qo'mitasi o'z faoliyatini tashkilot bo'linmasida tashkil qiladi, yuqori kasaba uyushmasi tashkilotlari rahbar organlari qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi, kasaba uyushmasi guruh tashkilotchilari ishini yo'naltirib va muvofiqlashtirib boradi.

O'z vakolati doirasida tsex tashkilotining umumiy yig'ilishini (konferensiya)ni chaqiradi, kun tartib bo'yicha takliflarni kiritadi, ko'riladigan masalalar bo'yicha hujjatlar loyihalari tayyorlanishini tashkil qiladi.

6.16. Kasaba uyushmasi guruh tashkilotchisi a'zolar bilan yakka tartibda ish olib boradi, ularni jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etishga jalb qiladi, mehnat, o'qish, malaka oshirish, maishiy xizmat hamda dam olish sharoitlarini yaxshilash borasida kasaba uyushmasi qo'mitasiga takliflar kiritadi.

O'z vakolati doirasida yakka tartibda qarorlar qabul qiladi.

6.17. Boshlang'ich tashkilot faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risidagi qaror o'zi kasaba uyushmasi xizmatida bo'lgan yuqori kasaba uyushmasi organini xabardor qilgan holda boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi (konferensiyasi)da qabul qilinadi. Kquorum mavjud bo'lgani holda umumiy yig'ilishda ishtirok etayotgan kasaba uyushmasi a'zolarining, konferensiyada ishtirok etayotgan delegatlarning uchdan ikki qismi qo'llab-quvvatlaganda qaror qabul qilingan hisoblanadi.

Qabul qilingan qaror nusxasi umumiy yig'ilish (konferensiya) o'tkazilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida mazkur boshlang'ich kasaba uyushmasi xizmatida bo'lgan yuqori kasaba uyushmasi organiga yo'llanadi.

6.18. Tashkilot tugatilgan holda, agar ushbu ustavning 6.17.-bandida ko'zda tutilgan tartibda boshlang'ich tashkilot faoliyatini tugatish uchun umumiy yig'ilish (konferensiya) o'tkazish imkoni bo'lmasa, yuqori kasaba uyushmasi organi uni hisobdan chiqaradi. Buning uchun tashkilot davlat reestridan chiqarilganligi asos bo'ladi.

6.19. Boshlang'ich tashkilot tugatilganda barcha moliyaviy majburiyatlar bajarilgandan so'ng qolgan uning mol-mulki va mablag'lari Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflash uchun tegishli dalolatnoma asosida yuqori kasaba uyushmasi organiga o'tkaziladi.

6.20. Boshlang'ich tashkilot boshqa tarmoq kasaba uyushmasi xizmatiga o'tgan hollarda uni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmaydi.

Bunda, kasaba uyushmasi a'zolik badallaridan yuqori kasaba uyushmasi organiga o'tkazib berilishi kerak bo'lgan pul mablag'laridan qarzdorlik so'ndirilishi va boshqa mulkiy majburiyatlar bajarilishi, shu jumladan kasaba uyushmasiga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk mulkdorga qaytarilishi shart.

6.21. Boshlang'ich tashkilot tugatilgan, shuningdek boshqa tarmoq kasaba uyushmasi xizmatiga o'tkazilgan holda yuqori kasaba uyushmasi vakolatli organi boshlang'ich tashkilotni ro'yxatdan chiqarish haqida qaror qabul qilishi lozim.

6.22. Tashkilotda mulkchilik shakli o'zgargan, qayta tashkil etilgan taqdirda, boshlang'ich tashkilot va uning organlari o'z huquqiy maqomini saqlab qolgan holda faoliyat ko'rsatishni davom ettiradi.

VII. KASABA UYUSHMASINING RAHBAR ORGANLARI

7.1. Quyidagilar kasaba uyushmasining rahbar organlari hisoblanadi:

- Qurultoy – kasaba uyushmasining oliy rahbar organi;
- kasaba uyushmasi Kengashi (Kengash) – Qurultoylar oraliq'ida kasaba uyushmasining doimiy faoliyat ko'rsatuvchi kollegial rahbar organi;
- kasaba uyushmasi Kengashi Ijroiya qo'mitasi (Ijroiya qo'mita) – kasaba uyushmasi faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiruvchi kollegial ijro organi;
- kasaba uyushmasi raisi – faoliyatini yakkaboshchilik asosida amalga oshiruvchi ijro organi;

Taftish komissiyasi – kasaba uyushmasining kollegial nazorat organi.

7.2. Davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, ish beruvchilar kasaba uyushmasi rahbar organlarining tarkibiga saylanishi mumkin emas.

7.3. Kasaba uyushmasi Qurultoyi.

7.3.1. Navbatdagi Qurultoy kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan besh yilda kamida bir marta chaqiriladi. Qurultoyni chaqirish muddati, vakillik me'yori, delegatlarni saylash tartibi va kun tartibi kamida 1 oy oldin e'lon qilinadi.

7.3.2. Qurultoy qaroriga muvofiq delegatlarning vakolatlari navbatdagi Qurultoygacha saqlab qolinishi mumkin (navbatdan tashqari Qurultoy bundan mustasno).

7.3.3. Navbatdagi Qurultoyni chaqirish imkoniyati bo'lmagan taqdirda (favqulodda holatlar, karantin e'lon qilinganda va boshqa uzrli sabablar) kasaba uyushmasi rahbar organlarning, kasaba uyushmasi raisi o'rinbosarlarining vakolat muddati o'z-o'zidan uzaytirilgan hisoblanadi. Bu muddat bir yildan oshishi mumkin emas.

7.3.4. Kasaba uyushmasining navbatdan tashqari Qurultoyi kasaba uyushmasi Kengashining o'z tashabbusi bilan yoki kasaba uyushmasi a'zolarining uchdan bir qismining talabiga, shuningdek Federatsiyaning tavsiyasiga ko'ra chaqirilishi mumkin.

Navbatdan tashqari Qurultoyni chaqirish muddati va uning kun tartibi ushbu ustavning 7.3.2.-bandiga muvofiq delegatlarning vakolatlari saqlab qolinganda hollarda kamida 15 (o'n besh) kun, boshqa hollarda kamida 1 (bir) oy oldin e'lon qilinadi.

7.4. Qurultoy quyidagi vakolatlarga ega:

7.4.1. kasaba uyushmasi Kengashi, taftish komissiyasining faoliyati to'g'risidagi

hisobotlarini eshitish va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish;

7.4.2. kasaba uyushmasining ustavi va “Taftish komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom”ni tasdiqlash, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

7.4.3. kasaba uyushmasini qayta nomlash, qayta tashkil etish va tugatish;

7.4.4. kasaba uyushmasi faoliyatining strategik yo‘nalishlarini belgilash, Harakat dasturini va boshqa dasturiy hujjatlarni qabul qilish;

7.4.5. kasaba uyushmasi raisini saylash;

7.4.6. kasaba uyushmasi Kengashining son jihatdan tarkibini belgilash, a‘zolarini va ularning o‘rinbosarlari (dublyorlari)ni saylash, Kengash tarkibiga saylanganlarning vakolatlarini tasdiqlash;

7.4.7. kasaba uyushmasi tuzilmasini belgilash;

7.4.8. kasaba uyushmasining taftish komissiyasi raisini hamda a‘zolarini saylash, zarurat bo‘lganda muddatidan oldin ushbu tarkibga o‘zgartirish kiritish;

7.4.9. kasaba uyushmasi harakatining muhim masalalari, jumladan kasaba uyushmasi Kengashi, Ijroiya qo‘mita vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha qarorlar, murojaatnomalar qabul qilish;

7.4.10. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Qurultoyiga delegatlar, shuningdek, belgilangan kvota bo‘yicha Federatsiya Bosh kengashi tarkibiga vakillarni saylash.

7.5. Ushbu bandning 7.4.1., 7.4.3. va 7.4.4 bandlarida ko‘rsatilgan vakolatlar Qurultoyning mutlaq vakolatiga kiradi.

7.6. Qurultoy o‘zining mutlaq vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish vakolatini kasaba uyushmasi Kengashiga, Ijroiya qo‘mitaga berishi mumkin.

7.7. Kasaba uyushmasi raisi va uning o‘rinbosari (o‘rinbosarlari) o‘z lavozimlariga ko‘ra kasaba uyushmasi Qurultoyi delegati hisoblanadi.

Qurultoy hujjatlari qaror, rezolyutsiya, deklaratsiya, shuningdek murojaat shaklida qabul qilinishi mumkin.

7.8. Kasaba uyushmasi Kengashi.

7.8.1. Kasaba uyushmasi Kengashi Qurultoylar oralig‘ida kasaba uyushmasining kollegial rahbar organi hisoblanadi.

7.8.2. Kasaba uyushmasi Kengashi uning tarkibiga a‘zolarini bevosita Qurultoyda saylash yo‘li bilan shakllantirilishi mumkin.

7.8.3. Kasaba uyushmasi raisi va uning o‘rinbosar(lar)i lavozimiga ko‘ra kasaba uyushmasi Kengashi tarkibiga kiradi.

7.9. Kasaba uyushmasi Kengashi quyidagi vakolatlarga ega:

7.9.1. Ustavda belgilangan vazifalarni, kasaba uyushmasi Qurultoyi qarorlarini bajarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi;

7.9.2. kasaba uyushmasi Qurultoyini chaqiradi, Qurultoyga vakillik me‘yori va ularni saylash tartibini, uni o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni belgilaydi;

7.9.3. kasaba uyushmasi Kengashining hisobot davridagi faoliyati to‘g‘risida

Qurultoyga hisobotini ma'qullaydi va ma'ruzachini tasdiqlaydi;

7.9.4. kasaba uyushmasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

7.9.5. Qurultoylar oralig'ida Kengash a'zolarini (ularning dublyorlarini) tarkibdan chiqarish va ularning o'rniga yangi a'zolarini saylash to'g'risida qarorlar qabul qiladi, zarur hollarda Kengashning son jihatdan tarkibiga o'zgartirish kiritadi;

7.9.6. kasaba uyushmasi raisi o'rinbosar(lar)ini saylaydi va lavozimidan ozod qiladi (Kengash majlislari oralig'ida rais o'rinbosar(lar)ini saylash masalasi Ijroiya qo'mita tomonidan hal qilinishi ham mumkin);

7.9.7. zarurat tug'ilganda (jumladan, rais boshqa ishga o'tgani, salomatligi yomonlashgani, iste'foga chiqqani tufayli o'z vazifalarini bajara olmay qolganda) Qurultoylar oralig'ida kasaba uyushmasi raisini lavozimidan ozod qiladi va yangi raisni saylaydi saylash (bunga zarurat bo'lmaganda esa uning vazifasini o'rinbosar (o'rinbosardan biri) bajaradi);

7.9.8. Qurultoy oralig'ida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Bosh kengashi tarkibidan vakillarini chaqirib olish va ularning o'rniga yangi vakillarni yo'llash (saylash) to'g'risida qaror qabul qiladi;

7.9.9. Kengash a'zolari orasidan Ijroiya qo'mita a'zolarini saylaydi, Ijroiya qo'mitaning son tarkibini belgilaydi;

7.9.10. kasaba uyushmasi xalqaro faoliyatining asosiy yo'nalishlarni belgilaydi, turdosh kasaba uyushmalarining xalqaro birlashmalariga a'zo bo'lish va undan chiqish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

7.9.11. Ustav vazifalaridan kelib chiqqan holda xayriya hamda boshqa markazlashgan jamg'armalarini tashkil qilish haqida qarorlar qabul qilishi mumkin.

7.9.12. Kasaba uyushmasi Kengashi majlislari zaruratga qarab, lekin yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

7.9.13. Kasaba uyushmasi Kengashining majlislari Ijroiya qo'mita qaroriga muvofiq yoki Kengash a'zolarining kamida uchdan bir qismi talabiga ko'ra chaqirilishi mumkin.

7.9.14. Kasaba uyushmasi Kengashining majlislarini kasaba uyushmasi raisi, u bo'lmagan vaqtda o'rinbosari (o'rinbosarlaridan biri) olib boradi.

7.9.15. Kasaba uyushmasi Kengashi majlisida (Plenumida) ko'rilgan masalalar bo'yicha xulosalar qaror shaklida qabul qilinadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

7.9.16. Kasaba uyushmasi Kengashi Ijroiya qo'mitaning vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishi, shuningdek o'zining ayrim vakolatlarini Ijroiya qo'mitaga, kasaba uyushmasi raisiga berishi mumkin.

7.10. Ijroiya qo'mita.

7.10.1. Ijroiya qo'mita kasaba uyushmasi Kengashi Majlis (Plenum)lari oralig'ida kasaba uyushmasining kollegial ijroiya organi hisoblanadi.

7.10.2. Kasaba uyushmasi raisi va uning o'rinbosar(lar)i lavozimiga ko'ra Ijroiya qo'mita a'zosi hisoblanadi.

Shuningdek, Ijroiya qo'mita tarkibiga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan vakil qilingan 1 (bir) nafar a'zo kiritiladi.

7.10.3. Ijroiya qo‘mita majlislari zaruratga qarab, ammo har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi.

7.11. Ijroiya qo‘mitaning vakolatlari quyidagilardan iborat:

7.11.1. ish beruvchilar bilan tuziladigan jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvlari loyihalarini ma’qullash;

7.11.2. mehnat jamoasining ijtimoiy-mehnat huquqlari va manfaatlariga doir masalalarni qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlash yuzasidan takliflar bilan chiqish;

7.11.3. xodimlar uchun mehnat sharoiti, bandlik va ijtimoiy kafolatlar bo‘yicha majburiyatlarni, shuningdek, xodimlar hamda talaba va o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish, ularni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish masalalarini o‘zida aks ettiruvchi qo‘shma qarorlar qabul qilish;

7.11.4. kasaba uyushmasining mehnat inspeksiyasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

7.11.5. kasaba uyushmasi Kengashining majlisini chaqirish, uning kun tartibi va o‘tkazish joyi, vaqti yuzasidan takliflar kiritish, muhokama qilinayotgan masalalarga oid xujjatlarni taqdim etish, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tashkil qilish;

7.11.6. kasaba uyushmasining boshlang‘ich tashkilotini tashkil qilish va tugatish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, ular to‘g‘risidagi nizomlarni, shtat jadvallari va xodimlarining ish haqi miqdorlarini belgilash;

7.11.7. kasaba uyushmasining Faxriy yorlig‘ini, faxriy unvonlarini, esdalik va ko‘krak nishonlarini ta’sis etish, ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

7.11.8. kasaba uyushmasi xodimlari va faollarini davlat mukofotiga tavsiya qilish, ularga faxriy unvonlar berish haqida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga taklif kiritish;

7.11.9. kasaba uyushmasining daromadlar va xarajatlari smetasini tasdiqlash;

7.11.10. kasaba uyushmasi tizimidagi tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini o‘rganish maqsadida auditor tashkilotlarni jalb qilish;

7.11.11. turdosh kasaba uyushmalarining xalqaro birlashmalari organlari tarkibiga kasaba uyushmasi vakillarini yo‘llash, chaqirtirib olish;

7.11.12. kasaba uyushmasi xodimlarini kasaba uyushmasi byudjeti hisobidan xorijiy xizmat safariga yuborish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

7.11.13. kasaba uyushmasi mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

7.11.14. kasaba uyushmasi apparatining ish rejasini va faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

7.11.15. ayrim kechiktirib bo‘lmaydigan (masalan, lavozimidan ozod etish haqida ariza bergan, salomatligi tufayli o‘z vazifalarini bajara olmagan va boshqa) hollarda kasaba uyushmasi raisi o‘rinbosar(lar)ini lavozimidan ozod qilish;

7.11.16. kasaba uyushmasi tizimida hisobot-saylov kompaniyasini muvofiqlashtirib borish;

7.11.17. kasaba uyushmasining ramzlarini tasdiqlash;

7.11.18. kasaba uyushmasi kadrlari va faollari o'quvlarini tashkil qilish, kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

7.11.19. Federatsiya bilan kelishgan holda, Ustavda ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun tijorat tashkilotlarini ta'sis etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi tijorat faoliyatlarini olib borish;

7.11.20. murojaat qilingan hollarda, vakolati doirasida, kasaba uyushmasi tashkilotlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish;

7.11.21. ish rejasiga muvofiq yoki zaruratga ko'ra, boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini o'rganish va natijalari yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish.

Ijroiya qo'mitaga Qurultoy, kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan boshqa huquq va majburiyatlar xam berilishi mumkin.

7.12.1. Ijroiya qo'mita majlisida ko'rilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi va bayonnoma rasmiylashtiriladi.

7.12.2. Ijroiya qo'mitaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi, uning o'rinbosarlari, Kengash apparatining ma'sul xodimlari hamda barcha quyi kasaba uyushmasi tashkilotlari organlari uchun bajarilishi majburiy hujjat hisoblanadi.

7.13. Kasaba uyushmasi raisi.

7.13.1. Kasaba uyushmasi raisi kasaba uyushmasiga rahbarlik qiladi, bir vaqtning o'zida kasaba uyushmasi Kengashi va Ijroiya qo'mita raisi ham hisoblanadi.

7.13.2. Qurultoy nomidan kasaba uyushmasi raisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasi Qurultoy qarori bilan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi.

7.14. Kasaba uyushmasi raisining huquq va vazifalari quyidagilardan iborat:

7.14.1. kasaba uyushmasi organlari qarorlarining bajarilishini tashkil qiladi, ijrosini nazorat qiladi va ular oldida hisob beradi;

7.14.2. davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, ish beruvchilar birlashmalari va boshqa tashkilotlarda, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda kasaba uyushmasi nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi;

7.14.3. soha xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda kasaba uyushmasi vakillarining ishtirokini ta'minlaydi;

7.14.4. belgilangan tartibda kasaba uyushmasi bilan kelishish uchun kiritilgan normativ va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini o'z imzosi bilan kelishib beradi yoki o'z taklif va e'tirozlarini bildiradi;

7.14.5. o'rnatilgan tartibda ish beruvchilar va ularning birlashmalari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar, xorijiy kasaba uyushma tashkilotlari bilan kelishuvlar, bitimlar, memorandumlar va boshqa hujjatlarni imzolaydi;

7.14.6. tashkilotlar rahbarlaridan xodimlarning huquq va manfaatlarini kamsitadigan yoki qonun hujjatlariga zid qarorlari ijrosini to'xtatib qo'yishni yoki o'zgartirishni talab qiladi;

7.14.7. zarur hollarda kasaba uyushmasi nomidan bayonotlar beradi, tegishli tashkilotlarga murojaatnoma va taqdimnomalar yo'llaydi;

7.14.8. kasaba uyushmasi va uning organlari nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan aloqada ishonchnomasiz harakat qiladi hamda muloqot olib boradi;

7.14.9. kasaba uyushmasi Kengashi apparatida ichki mehnat tartibini belgilovchi hujjatlarni, apparat xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini (funksional vazifalarini) tasdiqlaydi;

7.14.10. kasaba uyushmasi Kengashining apparati xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, o'zgatiradi, bekor qiladi, ularga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llaydi, Kengash apparatning ma'muriy-xo'jalik faoliyatini ta'minlaydi;

7.14.11. kasaba uyushmasi raisi o'rinbosar(lar)ini saylash yoki lavozimidan ozod etish bo'yicha kasaba uyushmasi Kengashiga, lozim bo'lganda Ijroiya qo'mitaga takliflar kiritadi;

7.14.12. mazkur Ustavda belgilangan vakolatlari doirasida farmoyishlar chiqaradi;

7.14.13. kasaba uyushmasi Kengashi nomidan ishonchnoma beradi;

7.14.14. Ijroiya qo'mita majlisini chaqiradi, muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan majlisga hujjatlar tayyorlanishi va kiritilishini nazorat qiladi;

7.14.15. kasaba uyushmasi Kengashi va Ijroiya qo'mita qarorlarini imzolaydi;

7.14.16. kasaba uyushmasi nomidan xo'jalik va boshqa shartnomalarni tuzadi;

7.14.17. tasdiqlangan smeta va Ijroiya qo'mita qarorlariga muvofiq mulk va pul mablag'larini tasarruf etadi;

7.14.18. ishlab chiqarishdagi asosiy ishidan ozod etilmagan kasaba uyushmasi qo'mitasining saylangan rahbarlik (rais, rais o'rinbosari) lavozimlariga nomzodlarni taklif qilish, ularni lavozimlaridan ozod etish yoki ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash taklifini kiritish huquqiga ega.

Kasaba uyushmasi vakolatli organining ishlab chiqarishdagi asosiy ishidan ozod etilmagan kasaba uyushmasi qo'mitasining saylangan rahbarlari (rais, rais o'rinbosari)ni lavozimidan ozod etish yoki ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi qarori 10 (o'n) kun muddatdan kechikmay tegishli boshlang'ich tashkilot rahbar organining navbatdan tashqari majlisida ko'rib chiqilishi va qabul qilingan qaror haqida uch kun muddatda kasaba uyushmasi raisiga yozma xabar berilishi shart

7.14.19. kasaba uyushmasi Kengashi va/yoki Ijroiya qo'mita tomonidan unga berilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Kasaba uyushmasi raisining qarorlari farmoyishlar shaklida qabul qilinadi.

7.15. Taftish komissiyasi.

7.15.1. Taftish komissiyasi kasaba uyushmasi tizimidagi tashkilotlarda mazkur Ustav, tizimda amalda bo'lgan nizom, tartib, yo'riqnoma va normativ hujjatlarga rioya

etilishini, Qurultoy, kasaba uyushmasi Kengashi, Ijroiya qo'mita qarorlari ijrosini, mulkdan samarali foydalanilishini tekshiradi, taftishdan o'tkazadi va nazorat qiladi.

7.15.2. Taftish komissiyasi kasaba uyushmasi Kengashining vakolatiga teng muddatga Qurultoyda saylanadi.

7.15.3. Taftish komissiyasining faoliyati Qurultoy qaroriga ko'ra yoki kasaba uyushmasining faoliyati to'xtatilgan taqdirda to'xtatiladi.

7.15.4. Taftish komissiyasi o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, Qurultoy oldida hisobdordir.

7.15.5. Qurultoylar oralig'ida zarurat tug'ilganda taftish komissiyasi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish, jumladan komissiya raisini lavozimidan ozod etish va yangi raisini saylash kasaba uyushmasi Kengashi va taftish komissiyasining qo'shma Majlisi qarori bilan amalga oshiriladi.

7.15.6. Taftish komissiyasi o'z faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlarga, mazkur Ustav va Qurultoy tomonidan tasdiqlanadigan "Kasaba uyushmasi tashkilotlarining taftish komissiyalari to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi.

7.16. Kasaba uyushmasi Kengashining apparati.

7.16.1. Kasaba uyushmasi Kengashining apparati kasaba uyushmasi organlari maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish uchun shakllantiriladi va doimiy asosda faoliyat yuritadi.

7.16.2. Kasaba uyushmasi Kengashining apparati o'z faoliyatini Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlanadigan reglament asosida amalga oshiradi.

VIII. QURULTOYLAR, KONFERENSIYALAR, SAYLANGAN RAHBAR ORGANLAR MAJLISLARI, UMUMIY YIG'ILISHLARNING VAKOLATLI BO'LISHI, ULARDA QARORLAR QABUL QILISH

8.1. Boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishlari ularda mazkur boshlang'ich tashkilotida hisobda turgan kasaba uyushmasi a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

8.2. Kasaba uyushmasi Qurultoylari, boshlang'ich tashkilotlarning konferensiyalari ularga saylangan delegatlarning uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

8.3. Kasaba uyushmasi, boshlang'ich tashkilotlar saylangan organlari (qo'mita, Kengash, Ijroiya qo'mita)ning majlis (yig'ilish)lari mazkur saylangan organ a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

8.4. Kasaba uyushmasi, boshlang'ich tashkilotlar organlari (Qurultoy, qo'mita, Kengash, Ijroiya qo'mita)ning qarorlari kvorum mavjud bo'lgani holda ularda ishtirok etgan a'zolarining yarmidan ko'pi yoqlab ovoz berganda qabul qilingan hisoblanadi.

Ovoz berish shakli tegishli umumiy yig'ilish, Qurultoy, konferensiya delegatlari, saylangan organ a'zolari tomonidan belgilanadi.

8.5. Umumiy yig'ilish, Qurultoy, konferensiya, saylangan organ majlislari (yig'ilishlari)da muhokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilinadi va yakuni bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtiriladi.

8.6. Kasaba uyushmasi kollegial organlarining ish tartibi Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlanadigan Reglament asosida belgilanadi.

8.7. Zarur hollarda kasaba uyushmasi Qurultoyi, boshlang'ich tashkilot konferensiyalari va ularning kollegial organlari majlislari videokonferens aloqa tartibida o'tkazilishi mumkin.

8.8. Tezkor ravishda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha kasaba uyushmasi Kengashi, Ijroiya qo'mita kollegial organlarining qarorlari ularning loyihalariga rozilik belgisi (viza) qo'yish orqali, jumladan, elektron raqamli imzo, pochta, telegraf, teletayp, faks, elektron va boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda, so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

IX. TIZIMDA HISOBOT-SAYLOVLARNI O'TKAZISH VA KASABA UYUSHMASI TASHKIOTLARI ORGANLARINING VAKOLAT MUDDATLARI

9.1. Kasaba uyushmasi tizimidagi boshlang'ich tashkilotlarda hisobot-saylov yig'ilishlari, konferensiyalari, shuningdek kasaba uyushmasining qurultoyi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining vakolatli organi qarori asosida kasaba uyushmasi Kengashi (Ijroiya qo'mita) qarori bilan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

Mazkur jarayonda saylangan kasaba uyushmasi guruhi tashkilotchilari, sex qo'mitalari raislari, kasaba uyushmasi tashkilotchilari, boshlang'ich tashkilotlar, shuningdek kasaba uyushmasining kollegial rahbar, ijroiya va nazorat organlari, ularning raislari hamda rais o'rinbosarlari vakolat muddati 5 yil.

9.2. Hisobot-saylov kampaniyalari oralig'ida tashkil etilgan boshlang'ich tashkilotlarda navbatdagi hisobot-saylov kampaniyasi jarayonida, umumiy tartibda, hisobot-saylov yig'ilishlari, konferensiyalari o'tkaziladi va kollegial rahbar, ijroiya, nazorat organlari, shuningdek ularning raislari (rais o'rinbosarlari) saylanadi.

Ushbu qoida navbatdagi hisobot-saylovlar oralig'ida boshlang'ich tashkilotlarning kollegial rahbar, ijroiya, nazorat organlari tarkibiga saylangan a'zolariga, shuningdek ularning raislari (rais o'rinbosarlari)ga nisbatan ham tatbiq etiladi.

9.3. Fors-major holatlarida yoki qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar joriy qilinganda, shuningdek boshqa uzrli holatlarda kasaba uyushmasi Kengashi (Kengash Ijroiya qo'mitasi)ning qaroriga muvofiq boshlang'ich tashkilotlar, shuningdek kasaba uyushmasi rahbar, ijroiya va nazorat organlarining, ularning rahbarlari hamda rahbar o'rinbosarlarining vakolat muddatlari uzaytirilishi mumkin.

X. KASABA UYUSHMASIDA MEHNAT MUNOSABATLARI

10.1. Barcha darajadagi kasaba uyushmasi tashkilotlarida saylangan lavozimga saylangani munosabati bilan ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan shaxslar, shuningdek, kasaba uyushmasi tashkilotlari apparatlarida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan xodimlar bilan mehnat munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar, jamoa shartnomalari va kelishuvlari va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

10.2. Lavozimga saylangani munosabati bilan ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan xodimlar bilan tegishli saylangan organning (ushbu ustavning 9.1. va 9.2.-

bandlari qoidalarini inobatga olgan holda) vakolat muddatiga teng muddatga mehnat shartnomalari tuziladi.

10.3. Shtatdagi kasaba uyushmasi xodimlarining shaxsiy hujjatlari yig'majildi va mehnat daftarchalari xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzgan kasaba uyushmasi tashkilotida saqlanadi.

10.4. Kasaba uyushmasi organiga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan shaxslar uchun qonunchilikda kafolatlar belgilangan bo'lib, kasaba uyushmasi organidagi saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganligi tufayli ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan xodimlarga ularning saylov vakolatlari tugaganidan so'ng avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmagan taqdirda esa o'sha tashkilotda yoki xodimning roziligi bilan boshqa tashkilotda avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) beriladi, shuningdek ushbu xodimlariga amaldagi ijtimoiy-mehnat ta'minotiga oid qonun xujjatlari qoidalari tatbiq etiladi.

10.5. Kasaba uyushmasi organiga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan shaxslar uchun qonunchilikda kafolatlar belgilangan bo'lib, kasaba uyushmasi organiga saylangan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan shaxslar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy tartibiga rioya etishdan tashqari, ular a'zo bo'lgan kasaba uyushmasi organing roziligi oldindan olingan holda yo'l qo'yiladi.

XI. KASABA UYUSHMASINING MULKI VA MABLAG'LARI HAMDA ULARNI SHAKLLANTIRISH MANBALARI

11.1. Kasaba uyushmasi va uning tuzilmasidagi tashkilotlari Ustavdagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'ziga tegishli mulki va mablag'larini tasarruf etadilar, ularga egalik qiladilar, ulardan foydalanadilar, belgilangan tartibda sarflaydilar.

11.2. Kasaba uyushmasi va uning tuzilmasidagi tashkilotlarining mulki va mablag'lari kasaba uyushmasi a'zolarining har oylik a'zolik badallari, ixtiyoriy mulkiy bidallar va xayriyalar, qonunlarda belgilangan tartibda tadbirkorlik, xo'jalik va boshqa tijorat faoliyatidan olingan, ustav maqsadlariga yo'naltiriluvchi daromadlar, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, turizm, jismoniy tarbiya-sport va boshqa tadbirlarini o'tkazish uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'tkaziladigan, shuningdek, qonunlarda taqiqlanmagan boshqa tushumlardan shakllantiriladi.

Kasaba uyushmasi a'zolik badallari va boshqa manbalardan tushgan mablag'lar madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlariga, turizm yo'nalishiga, kasaba uyushmasi a'zolariga moddiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirishga, qulaym mehnat sharoitlarini yaratish bilan bog'liq zaruriy vositalar bilan ta'minlashga, sog'lomlashtirish muassasalari (sanatoriya-profilaktoriya, tibbiy qism, oromgohlar) faoliyatini tashkil qilishga, kasaba uyushmasi organlarida ishlaydigan xodimlarga haq to'lash va amaldagi qonunchilik doirasida boshqa Ustav maqsadlari uchun sarflanadi.

11.3. Ish beruvchilar kasaba uyushmasi tashkilotiga jamoa shartnomasida, kelishuvida belgilangan maqsadlar uchun va miqdorlarda mablag'lar o'tkazishi mumkin.

Ish beruvchilar, korxona va tashkilotlar kasaba uyushmasi va uning tizimidagi boshlang'ich tashkilotlar balansiga xodimlarni qo'llab-quvvatlash, kasaba uyushmasini rag'batlantirish va uning salohiyatini oshirish maqsadida o'zlarining balansida bo'lgan obyektlar, bino va inshootlar, asosiy vositalar, aktivlarni beg'araz o'tkazib berishi mumkin.

11.4. Kasaba uyushmasi va uning tizimidagi boshlang'ich tashkilotlari Ustav faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qimmatbaho qog'ozlar, aksiya va boshqa mulklar sotib olish huquqiga ega.

11.5. Kasaba uyushmasi belgilangan tartibda o'zining mustaqil balansi, banklarda o'z hisob varaqalariga (shu jumladan, milliy va xorijiy valyutada) ega bo'lishlari mumkin.

11.6. Kasaba uyushmasi a'zolarining a'zolik badallari har oylik ish haqi, (stipendiya)ning bir foizi miqdorida belgilanadi va uning miqdori va to'lash tartibi kasaba uyushmasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Kasaba uyushmasi a'zosi arizasiga asosan o'z xohishi bilan belgilangan miqdordan ortiq badal to'lashi mumkin.

11.7. Kasaba uyushmasi qo'shimcha moliyaviy mablag'larni ishlab topish va kelgusida ulardan kasaba uyushmasi a'zolarining mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish uchun foydalanish maqsadida, belgilangan tartibda ishlab chiqarish, xo'jalik, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishi, sug'urta kompaniyasi va aksiyadorlik jamiyati, maqsadli jamg'armalar va boshqa tashkilotlarni tashkil etishi mumkin. Mazkur faoliyatdan tushgan daromad, shuningdek, kasaba uyushmasiga a'zolik badallari, kasaba uyushmasining mulki, pul va chet el valyutasidagi mablag'lari a'zolar o'rtasida taqsimlanmaydi va Ustav maqsadlariga sarflanadi.

11.8. Kasaba uyushmasi mablag'larini maqsadli va samarali sarflash tartibi kasaba uyushmasi Kengashi qarori bilan belgilanadi. Kasaba uyushmasining barcha organlari uchun ushbu tartibni bajarish majburiydir. Moliyaviy intizomga amal qilmagan kasaba uyushmasi organlari rahbarlari, mas'ul shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Kasaba uyushmasi va uning organlari rahbarlari, mas'ul shaxslari tomonidan sodir etilgan qonunbuzilish holatlari aniqlanganda, ushbu shaxslar hatti-harakati natijasida vujudga kelgan kamomad va majburiyatlar bo'yicha kasaba uyushmasi javobgar bo'lmaydi.

11.9. Kasaba uyushmasi kasaba uyushmasi Kengashining apparati, boshlang'ich tashkilotlar, shuningdek tasarrufdagi korxona va tashkilotlarning mablag'lari va mol-mulkilari kasaba uyushmasining umumiy mulkidir.

Kasaba uyushmasi va uning tasarrufidagi tashkilotlari faoliyati tugatilganda yoki kasaba uyushmasi a'zosi uning safidan chiqqanda kasaba uyushmasi mablag'lari va mol-mulki bo'linmaydi va qaytarilmaydi.

11.10. Kasaba uyushmasi mulki obyektlariga binolar, inshootlar, yer uchastkalari, mexanizmlar, jihozlar, transport va texnika vositalari, inventar, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya, sport va sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan mulk, turar va noturar joylar, mablag'lar, shu jumladan, chet el valyutasidagi mablag'lari, qimmatbaho

qog'ozlar, korxonalar va xo'jaliklar, ommaviy axborot vositalari, bosmaxonalar, sanatoriy-kurort, dam olish uyi, sog'lomlashtirish, sport, o'quv muassasalari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, intellektual mulk, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mol-mulklar kiradi.

11.11. Kasaba uyushmasining mulki daxlsizdir va u qonun bilan qo'riqlanadi. Uning mol-mulki natsionalizatsiya, rekvizitsiya va musodara qilinmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

11.12. Kasaba uyushmasi o'z mulkiga nisbatan qonunga va boshqa huquqiy hujjatlarga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishga, jumladan, homiylik va moliyaviy yordam mablag'larini ajratishga, o'z mulkini ajratib berishga, mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berishga, sotishga, mulkni garovga qo'yishga haqli.

Kasaba uyushmasi mulkining shaklini o'zgartirish, tasarruf etish masalasi qonun bilan o'rnatilgan tartibda, mazkur Ustavda belgilangan vakolatlar doirasida kasaba uyushmasi Kengashining Ijroiya qo'mitasi tomonidan hal etiladi.

11.13. Kasaba uyushmasi mulkining ishonchli boshqaruv uchun boshqa shaxsga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mulkiy huquqlarning o'tishiga asos bo'lmaydi, ishonchli boshqaruvchi kasaba uyushmasi manfaatlarini hisobga olib mulkni boshqarishi shart.

11.14. Kasaba uyushmasi va uning tasarrufidagi tashkilotlari kasaba uyushmasi Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori (ruxsati) bilan yoki vakolat berilgan kasaba uyushmasi kollegial organining qarori (ruxsati) bilan mol-mulk va aktivlar (bino va inshootlar, qurilmalar, avtotransport vositalari, turli qimmatbaho apparatura va texnika vositalari va hokazo)ni sotib olishi mumkin.

11.15 Kasaba uyushmasi va uning tasarrufidagi tashkilotlari qonunchilikda ta'qiqlanmagan tarzda har qanday mol-mulkni hadya (beg'araz) ravishda qabul qilib olishi mumkin.

Kasaba uyushmasi a'zolari va boshqa tashkilotlar kasaba uyushmasiga bergan mol-mulkiga va a'zolik badallariga egalik qilish huquqini saqlab qolmaydilar.

11.16. Kasaba uyushmasi o'z balansidagi aktivlari, mol-mulklar ustidan joriy boshqaruvni (egalik qilish huquqisiz) amalga oshiradi.

Kasaba uyushmasi mol-mulkleri va aktivlari (bino va inshootlar, qurilmalar, avtotransport vositalari, turli qimmatbaho apparatura va texnika vositalari va hokazo) kasaba uyushmasi Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan hisobdan chiqarilishi, sotilishi, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga yoxud beg'araz berilishi mumkin.

XII. KASABA UYUSHMASINING HISOB VA HISOBOTI

12.1. Kasaba uyushmasi o'z faoliyatining natijalari hisobini yuritadi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi, davlat soliq va statistika organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

12.2. Barcha kasaba uyushmasi organlari o'zlarini saylagan organlar hamda a'zolar oldida hisob berib boradilar.

XIII. KASABA UYUSHMASINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQLARI

13.1. Kasaba uyushmasi yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining belgilangan namunadagi muhri, shtampi, blanklariga, shuningdek, banklarda o'z hisob raqamlariga ega.

13.2. Kasaba uyushmasining yuridik shaxs sifatidagi huquq va majburiyatlari Ustavda belgilangan vakolatlar doirasida kasaba uyushmasi organlari va mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

13.3. Kasaba uyushmasi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan o'z ramzlari (timsoli)ga ega bo'lishi mumkin.

XIV. KASABA UYUSHMASI USTAVIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

14.1. Ushbu Ustavga kasaba uyushmasi Qurultoyi tomonidan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Qurultoy oralig'ida Ustavga qo'shimcha yoki o'zgartirishlar kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ustavga kiritilgan barcha o'zgartirish, qo'shimcha va tuzatishlar belgilangan tartibda qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

XV. KASABA UYUSHMASINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI

15.1. Kasaba uyushmasini qayta tashkil etish, (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) yoki tugatish to'g'risidagi qaror kasaba uyushmasi Qurultoyida qabul qilinadi. Kquorum mavjud bo'lgan holda Qurultoyda qatnashayotgan delegatlarning 2/3 qismi yoqlab ovoz berganda, qaror qabul qilingan deb hisoblanadi.

15.2. Kasaba uyushmasini qayta tashkil etish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

15.3. Kasaba uyushmasini tugatish haqida qaror qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi organ qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazuvchi adliya organi bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi, shuningdek, kreditorlar talablari qanoatlantirilgandan so'ng qolgan mulkni kasaba uyushmasi Ustaviga muvofiq qaysi maqsadga yo'naltirishni belgilaydi.

15.4. Kasaba uyushmasi faoliyatini to'xtatish, shuningdek, kasaba uyushmasini tugatish qonunda belgilangan tartibda sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Kasaba uyushmasining faoliyatini davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, ish beruvchilar tashabbusiga ko'ra tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

15.5. Kasaba uyushmasi tugatilgan holda uning hujjatlari belgilangan tartibda arxiv tashkilotlariga saqlash uchun topshiriladi.

XVI. YAKUNIY QOIDALAR

16.1. Mazkur Ustav talablarini bajarish kasaba uyushmasi tizimidagi tashkilotlar uchun majburiydir. Ushbu Ustav qoidalarini O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga zid tarzda talqin qilish mumkin emas.

16.2. Mazkur Ustav bo'yicha yuqori turuvchi organ qaror qabul qilish davomida bo'ysunuv bo'yicha quyi turuvchi organ vakolatlariga doir masalalarni ham hal etishi mumkin. Yuqori turuvchi organ bo'ysunuv bo'yicha quyi turuvchi organning qonun va mazkur Ustav talablariga zid qarorlarini qayta ko'rib chiqish uchun tegishli organ yoki vakolatli shaxsga yuborishi, kollegial organlar vakolatiga doir masalalar yuzasidan esa uning navbatdan tashqari yig'ilishini belgilangan tartibda chaqirishi mumkin.

16.3. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda quyi turuvchi organning qonun va Ustav talablariga zid qarorlari yuqori turuvchi organ tomonidan qisman yoki to'liq bekor qilinishi mumkin.